

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.2019.Fil.83.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

HAMROYEVA FARIDA FAXRIDDINOVNA

**XX ASR INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA MUALLIF SHAXSI VA
NARRATOLOGIYA MASALALARI (Frensis Skott Fitsjerald va
O‘tkir Hoshimov asarlari qiyosiy tahlili misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Hamroyeva Farida Faxriddinovna

XX asr ingliz va o‘zbek adabiyotida muallif shaxsi va narratologiya masalalari
(Frensis Skott Fitsjerald va O‘tkir Hoshimov asarlari qiyosiy tahlili misolida) ... 3

Хамроева Фарида Фахриддиновна

Вопросы личности автора и нарратологии в английской и узбекской
литературе XX века (на примере сравнительного анализа произведений
Фрэнсиса Скотта Фицджеральда и Уткира Хошимова) 22

Farida Fakhriddinovna Khamroeva

Issues of Author’s Personality and Narratology in English and Uzbek literature
of the XXth century (on the example of a comparative analysis of the works
of Francis Scott Fitzgerald and Utkir Khoshimov) 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.2019.Fil.83.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

HAMROYEVA FARIDA FAXRIDDINOVNA

**XX ASR INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA MUALLIF SHAXSI VA
NARRATOLOGIYA MASALALARI (Frensis Skott Fitsjerald va O‘tkir
Hoshimov asarlari qiyosiy tahlili misolida)**

10.00.06. - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3610 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchi.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Salohiy Dilorom Isomiddin qizi
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Musurmanov Erkin Rabbimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Xalliyeva Gulnoza Iskandarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi PhD.03/30.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "13" iyun soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (6187 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29" may kuni tarqatildi.
(2025-yil "29" may dagi № 03 raqamli reestr bayonnomasi).



N. Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O' O' Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
(PhD), dotsent

D. A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon komparativistika sohasi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy adabiyotshunoslikning muhim muammolarini hal etishda filologiyaning yangi yo'nalishlari vakillari o'z izlanishlarini kognitiv adabiyotshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va narratologiya sohalariga yo'naltirmoqdalar. Adabiyotshunoslik nafaqat badiiy asarni muallif uslubi nuqtai nazaridan tekshirib chiqish, balki o'quvchining matnni anglash jarayonini, uning semantik hamda kognitiv jihatlarini aniqlash tamoyillariga asoslanmoqda. Zamonaviy narratologiya faqatgina hikoya qilish texnikalarini tahlil qilish bilangina cheklanmay, balki personajning ichki dunyosi, ong-shuuri va idrok jarayonlariga ham alohida e'tibor qaratmoqda, bu esa fanning rivojlantiruvchi muhim omillaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida narratologiya fani rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilishi badiiy asar muallif nutqi masalasini zamonaviy adabiyotshunoslik mezonlari asosida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ilm-fan taraqqiyoti nafaqat badiiy matnni dastlabki tadqiq qilish uslub va metodlarini takomillashtirish, balki "ma'no kognitsiyalari"ning asl mohiyatini yanada chuqurroq anglash orqali yangi ilmiy paradigmalarga asoslanishni talab etmoqda. Shu bois, badiiy asar kompozitsiyasida narratologik tahlilni jahon adabiyotshunosligi oldida turgan muhim ilmiy vazifalardan biri sifatida o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu yondashuv adabiy matnning semantik, strukturaviy va kognitiv jihatlarini chuqur tahlil qilish, hikoyachilik texnikasining funksional xususiyatlarini aniqlash hamda zamonaviy adabiy jarayonlarni global miqyosda talqin qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida badiiy matn tahlilini kompleks o'rganish, adabiyotshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va lingvistik tadqiqotlarni kengaytirish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda yozuvchi va adiblarning individual uslubi, ijodiy metodlari va badiiy-estetik tamoyillarini tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar keng miqyosda olib borilmoqda. O'zbek adabiyotini jahonning mashhur so'z san'atkorlari ijodi bilan qiyosiy o'rganish sharqona madaniyatimiz betakrorligini, o'zbek tilining boy ifoda imkoniyatlari va badiiy latofatini chuqur anglashga xizmat qiladi. "Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar"¹. Shu nuqtai nazardan, amerikalik adib Frensis Skott Fitzgerald hamda o'zbek so'z san'atkori O'tkir Hoshimov hikoyalarida narratologiya masalalarining tahlili zamonaviy adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, milliy va jahon adabiyotidagi hikoyachilik uslublari, muallif nutqining shakllanishi va narrativ strukturalarning xususiyatlarini qiyosiy-narratologik nuqtai nazardan ochib berish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh. M. "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda"gi nutqidan. 21-oktabr, 2019-yil. <https://president.uz/oz/2954> (26.03.2025)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va axborot texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda tilshunoslik va adabiyotshunoslikning boshqa sohaları qatori, narratologiya ham ilm fan rivojida muhim o‘rin tutadi. Bu boradagi nazariy va amaliy atamalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Narrativli strukturalar tahlilini bir qancha olimlarning tadqiqot ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, bu mavzudagi nazariy masalalar M. M. Baxtin, Yu. M. Lotman, V. I. Tyupa, O. S. Babenko, V. Shmid, A. Palmer, V. P. Belyanin asarlarida hamda N. I. Matveyeva, V. I. Karasik, O. M. Krasnoperova² kabi olimlar va tadqiqotchilarining ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Aytish lozimki, narratologiya sohasi bugungi kunda bazaviy fanlararo bilimlarga keng murojaat etmoqda. Uning shakllanishiga Yu. M. Lotman va B. A. Uspenskiylarning matn nazariyasi xususidagi qarashlari katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu olimlar narratologiya doirasida o‘ziga xos yo‘nalish – “diskurs tahlili”ni alohida ajratishadi

² Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 402 с.; Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – СПб.: «Искусство-СПБ», 1998. – 285 с.; Тюпа В.И. Нарратология как аналитика повествовательного дискурса – Тверь: ТГУ, 2001. – 58 с.; Бабенко Л. Г., Васильев Е., Казарин Ю.В. Лингвистический анализ художественного текста. – Екатеринбург: Изд-во Уральского ун-та, 2000. – 532 с.; Шмид В. Перспективы и границы когнитивной нарратологии. (По поводу работ Алана Пальмера о “fictional mind” и “social mind”). – Германия: № 1(7), 2014. – С. 5-8.; Palmer A. Fictional Minds. – London: Nebraska Press, 2004. – 275 p.; Белянин В.П. Психологический и концептуальный анализ художественного текста с позиций доминанты логический агнализ языка. – М.: 1990. – 176 с.; Матвеева Н. И. Нарративная структура англоязычного художественного дискурса (на материале романов «потока сознания» начала XX века): Дисс. ... канд. филол. наук. – М.: 2003. – 148 с.; Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.; Красноперава И. А. Когнитивно-лингвистический анализ устойчивых нарративных структур: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ижевск: 2004. – 154 с.

va unga R. Bartning keyingi ishlarini, Yu. Kristeva³ tadqiqotlarini mansub hisoblaydilar.

O‘zbek adabiyotshunosligida adabiy asar tarkibida muallif nutqi ishtiroki, uning tildan foydalanish mahorati, narrativ strukturalar tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy-nazariy masalalar munosabati bilan o‘rganilgan. Xususan, muayyan ijodkor uslubi o‘ziga xosliklarini tadqiq etishdagi ishlarda M. Boboxonov, M. Yo‘ldoshev, badiiy obraz talqinlari tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda I. Pardayeva⁴, narrativ strukturalar va uni badiiy makonda aks etilishi kabi masalalar Г. Юсуповaning tadqiqot ishida⁵, til uslublari va matn tahlilining nazariy asoslariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda komparativistika va adabiy vorisiylik sohasidagi D. Salohiy, G. Xalliyeva, T. Sultonov⁶ kabi olimlar ishlarida muallif nutqi va uning badiiy asar kompozitsiyasidagi o‘rni haqida jiddiy mulohazalar ilgari surilgan. Ko‘rinib turganidek, adabiy asarda muallif nutqi masalasini o‘rganish bo‘yicha muayyan tajriba to‘planganiga qaramay, aynan ingliz va o‘zbek adabiyotidagi narrativli strukturalarning qiyosiy tadqiqi haligacha yetarlicha amalga oshirilmagan. Xususan, dissertatsiya obyekti sifatida tanlangan yirik adiblar bo‘lmish S. Fitsjerald va O‘. Hoshimovning asar ichida muallif nutqi sohasidagi mahoratlari komparativistikada maxsus tadqiq obyekti etib tanlanmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Til, madaniyat, tarjima va muloqot muammolari” mavzusidagi tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi XX asr ingliz va o‘zbek adabiyotida muallif shaxsi va narratologiya masalalarini Frensis Skott Fitzgerald hamda O‘tkir Hoshimov asarlari misolida qiyosiy-narratologik tahlil qilish hamda ushbu adiblarning hikoyalarida narrativ usullar va muallif pozitsiyasining badiiy-funksional xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

XX asr ingliz va o‘zbek adabiyotida muallif shaxsi va narratologiya masalalarini nazariy jihatdan tahlil qilish, muallif pozitsiyasi va narrativ usullar evolyutsiyasini adabiy jarayon kontekstida ochib berish;

ingliz va o‘zbek hikoyalarining narratologik qiyosiy tahlili natijasida G‘arb va Sharq hikoyachilik an‘analari, ularning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash;

³ Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – СПб.: «Искусство-СПБ», 1998. – С. 23; Успенский Б. А. Поэтика композиции. – М.: Изд-во «Искусство», 1970. – 214 с.; Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика. – М.: Изд-я группа «Прогресс», 1994. – 616 с.; Кристева Ю. Семиотика исследования по семанализу. – М.: Академический Проект, 2013. – 285 с.

⁴ Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек қиссачилигида психологизм // Фил. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 27; Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: 2010. – 112 b.; Pardayeva I. O‘zbek tilshunosligi tarixi // O‘quv-uslubiy majmua. – Guliston, 2013. – 125 b.

⁵ Юсупова Г. Когнитивное моделирование нарративных структур и их репрезентация в художественном пространстве (на материале романов У. Фолкнера “The Sound and the Fury” и “As I Lay Dying”): Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Самарканд, 2020.

⁶ Salohiy D. Mutafakkir va mumtoz she‘riyat. 1-kitob. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2018. – 196 b.; Халлиева Г. Қиёсий адабиётшунослик. – Тошкент: Академнарш, 2020. – Б. 23; Sultonov T. Alisher Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti: tarixiy ildizlar, an‘analar, vorisiylik (Kishvari va Sodiqiy asarlari misolida) //FFDA. – Toshkent, 2019. – 55 b.

S. Fitsjerald va O‘. Hoshimov hikoyalarida muallif pozitsiyasining namoyon bo‘lish usullarini tahlil qilish, hikoyachi (narrator) va personajlar o‘rtasidagi narrativ munosabatlarni belgilash;

ushbu adiblarning hikoyalarida qo‘llangan narrativ usullarni qiyosiy tahlil qilish, bayon strukturasi, fokalizatsiya, retrospektiv hikoya va boshqa narratologik xususiyatlarning badiiy-funksional ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida S. Fitsjeraldning “The ice palace, “The rich boy”, “Babylon revisited” novellalari hamda O‘. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani va “Dunyoning ishlari” nomli qissa va hikoyalar to‘plamidan “Xiyonat” va “Imon” novellalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini XX asr ingliz va o‘zbek adabiyotida muallif shaxsi va narratologiya masalalarining badiiy voqelanishi, xususan, S.Fitsjerald va O‘.Hoshimov asarlarida qo‘llangan narrativ usullar, muallif pozitsiyasi va bayon texnikalarining qiyosiy-narratologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsifiy, kontekstual, kognitiv-konseptual, freymli modellashtirish, komparativ tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek adabiyotida narratologik bayon usullarining umumiy va xususiy jihatlari aniqlanib, S. Fitsjerald novellalarida narratorning ishtirokchilik effekti ustuvorligi, O‘. Hoshimov hikoyalarida esa an’anaviy xalqona hikoyachilik shaklining yetakchiligi isbotlangan;

“The ice palace” va “Ikki eshik orasi” asarlarida mualliflar tomonidan yaratilgan qo‘shimcha narrativ strukturalarning xronotop nuqtai nazaridan janubiy va shimoliy mentalitet bilan bog‘liqligi, G‘arb va Sharq adabiyoti qiyosiy poetikasiga yangi yondashuvlar modelini namoyon etishi asoslangan;

S. Fitsjerald va O‘. Hoshimov novellalarida asar strukturasi o‘zgarishlar va kompozitsion yondashuvlar, narrativ transpozitsiya fenomenining janriy xususiyatlarga ta’siri, kognitiv-narratologik hodisaning lingvokognitiv hamda semiotik jihatlari, funksional ahamiyati ochib berilgan;

“The diamond as big as the Ritz” va “Ikki afsona” asarlarida fantastik va real hikoya makonlarining o‘zaro aloqadorligi, G‘arb va Sharq adabiyotida xayoliy makonning mifologik motivlar bilan bog‘liqligi, ertak, afsona, rivoyatlarda ko‘proq uchrashi, yosh bola obrazida shakllanishi hamda uning badiiy-funksional modeli yaratilgani isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

S. Fitsjerald va O‘. Hoshimov asarlarida qo‘llangan narrativ strukturalar va hikoya qilish usullarining lingvistik va kognitiv xususiyatlari qiyosiy-narratologik tadqiqi asosida kelib chiqqan xulosalar qiyosiy adabiyotshunoslik, badiiy matn stilistikasi va matn tahlili fanlari uchun metodologik asos sifatida xizmat qilishi aniqlangan;

xayoliy makon va narrativ transpozitsiya fenomenining janriy narratologik xususiyatlarga ta’siri, lingvopoetik hamda semiotik jihatlarning mukammal modeli, va bayon strukturasi badiiy-funksional ahamiyati dalillangan;

harakatlanuvchi fokalizatsiya, narrator pozitsiyasi, retrospektiv hikoya singari narrativ usullar funksional tasnifining adabiy voqelikda namoyon bo‘lish

mexanizmlari maxsus jadval va sxemalar orqali tadqiqot natijalarini raqamli matn tahlili ilovalariga joriy etish imkoniyatlari taqdim qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning tahlil metodologiyasi va metodi bilan uyg'unligi, muhokama qilinayotgan muammoning dolzarbligi, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, katta hajmdagi material tahlili asosida erishilgan lisoniy dalillarning nazariy asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari zamonaviy usullar tatbiqida yechilganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati S. Fitsjerald va O'. Hoshimov asarlarida qo'llangan narrativ strukturalarini qiyosiy aspektda o'rganishda, narrativ transpozitsiya fenomeni kognitiv-narratologik nuqtai nazardan tadqiq qilinishida, G'arb va Sharq adabiyotida xayoliy makonning badiiy-funksional modeli yaratilishida hamda narrativli transpozitsiyaning janriy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik, badiiy matn tahlili metodlari, badiiy matn stilistikasi, adabiy tanqid fanlari bo'yicha darsliklar, o'quv va o'quv-usuliy qo'llanmalar yaratishda, maxsus kurslar o'tishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asr ingliz va o'zbek adabiyotida muallif shaxsi va narratologiya masalalarini aniqlash bo'yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o'zbek adabiyotida narratologik bayon usullarining umumiy va xususiy jihatlari aniqlanib, S. Fitsjerald novellalarida narratorning ishtirokchilik effekti ustuvorligi, O'. Hoshimov hikoyalarida esa an'anaviy xalqona hikoyachilik shaklining yetakchi ekanligiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erazmus+ dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational Linguistics at Central Asian universities" nomli grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 12-sentabrdagi 2170/30.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada narratologiya va kompyuter lingvistikasi yo'nalishida o'quv materiallarini modernizatsiya qilish, badiiy matn tahlilining nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyati yaratilgan;

"The ice palace" va "Ikki eshik orasi" asarlarida mualliflar tomonidan yaratilgan qo'shimcha narrativ strukturalarning xronotop nuqtai nazaridan janubiy va shimoliy mentalitet bilan bog'liqligi, G'arb va Sharq adabiyoti qiyosiy poetikasiga yangi yondashuvlar modelini namoyon etishi kabi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan II-204-4-5-son "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 12-sentabrdagi 2171/30.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada qiyosiy adabiyotshunoslik, narratologiya va lingvistik texnologiyalar kesishmasida

innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga hissa qo‘shgan bo‘lib, oliy ta‘lim tizimida virtual ta‘lim resurslarini yaratishda nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qilgan;

S. Fitsjerald va O‘. Hoshimov novellalarida asar strukturasi o‘zgarishlar va kompozitsion yondashuvlar, narrativ transpozitsiya fenomenining janri xususiyatlarga ta‘siri, kognitiv-narratologik hodisaning lingvokognitiv hamda semiotik jihatlari, funksional ahamiyatiga oid tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturining 561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 12-oktabrdagi 936/02-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik bo‘yicha innovatsion o‘quv dasturlariga integratsiya qilinib, talabalar uchun yangi dars materiallari hamda uslubiy qo‘llanmalar yaratish imkoniyati yuzaga kelgan;

“The diamond as big as the Ritz” va “Ikki afsona” asarlarida fantastik va real hikoya makonlarining o‘zaro aloqadorligi, G‘arb va Sharq adabiyotida xayoliy makonning mifalogik motivlar bilan bog‘liqligi, ertak, afsona, rivoyatlarda ko‘proq uchrashi, yosh bola obrazida shakllanishi hamda uning badiiy-funksional modeli yaratilganiga oid natijalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom Samarqand” ko‘rsatuvini navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 17-yanvardagi 01-07/11-son ma‘lumotnomasi). Natijada televideniya badiiy matnning narrativ xususiyatlarini sahnaviy yondashuv asosida tahlil qilish, hikoyachilik texnikalarini ommaviy auditoriyaga moslashtirish hamda adabiy-estetik tahlilni ommabop formatda taqdim etish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, ushbu tavsiyalar asosida milliy va xorijiy adabiyot an‘analarini qiyosiy tahlil qilishga doir ko‘rsatuv mazmuni boyitilib, adabiy jarayonlarga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiluvchi uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi yuzasidan 13 ta ilmiy maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, asosiy matn 136 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi hamda uning xorijiy

ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Narrativ nazariyasi va uning XX asr adabiyotida badiiy voqelanishi”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda narratologiya sohasidagi tadqiqotlarda matnning obyekti sifatidagi mavqei, “hikoyachi”, “mavhum muallif” tushunchalari, badiiy asarlarda “muallif” muammosi va matn strukturasi kabi masalalar ilmiy tahlil qilingan.

Narratologiya adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishi bo‘lib, hikoya tuzilishini tadqiq etishda tizimli va izchil yondashuv hisoblanadi. Bunday yondashuv adabiy asarning turli qatlamlarini o‘rganib, yashirin ma‘nolarga yoki matndan tashqariga chiqishga, matnni tushunish qobiliyatini oshirishga muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Narratologiya hikoya tuzilishi va ularning inson idrokiga ta‘sir qilish usullarini o‘rganadi. Narratologiya yo‘nalishining tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, u Aristotelning ilmiy ijodiyotiga borib taqaladi, ammo zamonaviy narratologiya rus nazariyotchilaridan, xususan, Vladimir Propp va Mixail Baxtinning geteroglysiya, dialogizm va xronologiya nazariyalari bilan boshlangani qabul qilingan. Kognitiv narratologiya esa, hikoyani kengroq tushunish imkonini beruvchi yangi sohadir. Kognitiv narratologiyada “odamlar hikoyalarni qanday tushunishi” va “hikoyalardan qanday qilib aqliy vosita sifatida foydalanish mumkin” degan masalalar o‘rganiladi.

V. Shmid o‘zining “Kognitiv narratologiyaning istiqbollari va sarhadlari” maqolasida shunday yozadi: “Nihoyatda rang-barang namoyon bo‘layotgan kognitiv narratologiya adabiyotshunoslikka yangi ufqlarni ochib bermoqda. Uning asosiy vazifasi – bu narrativ va ong ham tasvirlanayotgan personajlarning, ham idrok etayotgan o‘quvchi ongi orasidagi aloqalar tahlilidir”⁷. Ushbu maqolada hozirgi g‘arb narratologlari orasidagi A. Palmerning nufuzli fikri va fikSIONAL tasvir samaradorligi masalasidagi bahs-munozaralar keltiriladi: “Mazkur muammoni kimdir emas, balki Alan Palmerning o‘zi qo‘ydi”⁸. A. Palmer “mumtoz” narratologiyani yopiq, xususiy, “intramental” onga biryoqlama, intraspektiv nuqtai nazarni jamlashda ayblaydi. U narratologiyadan o‘zi “social mind” (ijtimoiy xayol) va “intermental thought” (unutilgan fikr) deb nomlovchi hodisalarni o‘rganadigan tashqi nuqtai nazarni talab qiladi: “...which is joint, group, shared, or collective thought, as opposed to intramental, or private, individual thought”⁹ (o‘zgalalar bilan hamfikir bo‘lish yohud guruhning hamfikir bo‘lishi shaxsning individual fikrlashi yoki yolg‘iz fikrlashiga qarama-qarshi qo‘yiladi).

Narratologiya ikki yo‘nalishda rivojlandi: adabiyotshunoslik va tilshunoslik yo‘nalishlarida. Misol uchun, L. V. Vitkovskaya shunday deydi: “Hozirgi bosqichda strukturalizmning zamonaviy (va ancha transformatsiyalangan) shakli sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan narratologiya – I. Ilinning fikriga ko‘ra,

⁷ Шмид В. Нарратология . – М.: Языки славянской культуры, 2003. – С. 6.

⁸ Palmer Alan. Fictional Mind (Frontiers of Narrative Series). – London, 2004. – 276 p.

⁹ Шмид В. Нарратология . – М.: Языки славянской культуры, 2003. – С. 7.

strukturalizm va tanqidning fenomenologik maqsadli maktablari orasidagi sarhaddosh o'rinni egallagan adabiyotshunoslik ilmidir"¹⁰. V. I. Tyupa narratologiya nuqtai nazaridan matnni kognitiv tadqiq etish muhimligiga urg'u berib, uning fanlararo xususiyatini alohida ta'kidlab o'tadi: "Biroq na adabiy sujetologiya, na adabiy hikoyachi nazariyasi narratologiya tarkibiga kirarkan, u o'zining xos xususiyatlarini ham, dolzarbligini ham yo'qotmadi. Aksincha, janrlar, sujet bayon poetikasini o'rganish bo'yicha boy adabiyotshunoslik tajribalari badiiy bo'lmagan narrativli matnlarga qaratilarkan, ularning tadqiqotchilari oldida (va umuman zamonaviy ritorika oldida ham) yangi evristik imkoniyatlarni ochib beradi"¹¹.

Hikoya va hikoyachi atamaları adabiyotshunoslik sohasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarning diqqatini uzoq yillardan beri tortib kelmoqda. Hikoyachi ba'zan rivoyatchi ham deyiladi. Hikoya va rivoyat aslida bir-biridan farq qiladigan ikki so'z bo'lsa ham, adabiyotda "hikoyachi" va "rivoyatchi" atamaları bitta ma'noda ishlatiladi, chunki rivoyatsiz hikoya bo'lmaydi. Hikoyachi orqali biz hikoyani va uning qahramonlarini taniymiz va voqea jarayonidan xabardor bo'lamiz. Ko'plab adabiyotshunoslarning fikricha hikoyachi rivoyat qilingan voqealar va o'quvchi o'rtasida vositachi hisoblanadi. Bu hikoyada bayon qilinadigan fikrlar, voqea va hodisalarning ishonchli ekanligi yoki ishonchli emasligi, ko'proq yoki kamroq, batafsil yoki muxtasar ekanligidan qat'iy nazar, voqeaga nisbatan ma'lum bir nuqtai nazardan juda farqli ravishda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan vositachilikdir. Demak, hikoyachi sodir bo'lgan voqeani yetkazish, oshkor qilingan ma'lumotlarning haqqoniyligi va ma'lumotlarni yetkazish tezligini nazorat qilish, aytilgan fikrlarga o'ziga xos hissiy hamda ilmiy asoslangan munosabat berish yoki ma'lum bir uslub yordamida gapirish uchun mas'ul shaxsdir. Shu o'rinda hikoyachilarning turlari haqida biroz to'xtalib o'tishni lozim deb bilamiz. Hikoyachilarning tabiati, ijtimoiy kelib chiqishi, bilim saviyasi va boshqa xususiyatlariga qarab, ularning har xil turlarini aniqlash mumkin;

1. Birinchi shaxs hikoyachisi. Bu turdagi hikoyachi "intradiegetik" hikoyachi ham deyiladi va ichki rivoyatchi yoki bosh qahramon sifatida ham tanilgan. Bu naql qilinayotgan hikoyaning qahramonlaridan biri ham hisoblanadi, ya'ni u bir vaqtning o'zida ham hikoyachi va ham xarakterga egadir. Badiiyoq qilib aytadigan bo'lsak, biz sodir bo'lgan barcha hodisa-voqealarni mutlaqo uning ko'zlari bilan ko'rib turamiz. Shuning uchun birinchi shaxs hikoyachisi shaxslar haqida aytilganlar xotiralarda va fikrlarda namoyon bo'ladi va uning subyektivligi, foydalanadigan tili yoki tanlagan usuli orqali namoyon bo'ladi. Ushbu rivoyatchi, o'z navbatida, ikki xil bo'lishi mumkin:

Asosiy hikoyachi. Bir vaqtning o'zida hikoyachi, personaj va hikoyaning asosiy qahramoni rolini o'ynaydigan, ya'ni voqeaning aksariyat qismida qatnashgan shaxs. Bu kabi hikoyachilarni asosan, kundaliklar yoki avtobiografiyalarni bayon qiluvchi badiiy asarlarda ko'ra olamiz. O'. Hoshimovning "Xiyonat" deb nomlangan hokiyasining hikoyachisi bunga

¹⁰ Витковская Л. В. Когниция смысла. Литературоведение XXI века. – Пятигорск, 2012. – С. 23.

¹¹ Тюпа В. И. Очерк современной нарратологии / Критика и семиотика – М.: Рос. гос. гуман. ун-т. Вып. 5, 2002. – С. 42.

misol bo‘la oladi. Namuna tariqasida hikoyadan kichik bir parchani ko‘rsatishimiz mumkin: “...Student edim. Farishtadek go‘zal, farishtadek pokiza bir qizni sevib qoldim. Oy sutdek yorug‘ nur sochgan oqshomlari uzoq sayr qilardik. Bizning “o‘z” xiyobonimiz, “o‘z” anhorimiz, “o‘z” skameykamiz bor edi. Keyin... negadir u mendan o‘zini olib qochadigan bo‘lib qoldi. Xayol suradi, ko‘zini yashiradi...”¹²

S. Fitsjeraldning “The ice palace” hikoyasida birinchi shaxs hikoyachisi sifatida Salli Kerrol so‘z yuritadi. Quyidagi misol bunga yaqqol dalildir: “I had come from a place where the air was warm and the ground was never covered with snow, where trees did not lose their leaves”¹³ (Men harorati iliq bo‘lgan, yer yuzini hech qachon qor qoplamaydigan, daraxtlari esa barg to‘kmas hududdan kelgan edim.) Bu misolda Fitzgerald Salli Kerrolni hikoyaning asosiy qahramoni shu bilan birga hikoyachisi sifatida tasvirlaganini ko‘rishimiz mumkin.

Guvoh. Bunday holda, rivoyatchi sujetdagi ikkinchi darajali shaxs bo‘lib, u shunchaki bosh qahramon bilan sodir bo‘lgan voqeaning guvohi bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni u naql qilinayotgan narsalar haqida qanday qilib bilib olganligini aytib beradi. Odatiy qilib aytadigan bo‘lsak hikoyachi uchinchi shaxslarga nima bo‘lganini o‘z nuqtai nazaridan aytib beradi. Bu turdagi hikoyachilarning ishtirokini adabiy yoki jurnalistik xronikalarda ko‘proq ko‘rishimiz mumkin.

2. Ikkinchi shaxs hikoyachisi. Bu hikoyachining eng kam ommalashgan turidir, chunki u butun voqeani ikkinchi shaxslar (sen, siz, va boshqalar) yordamida bayon qiladi. Ushbu turdagi hikoyachi odatda abstraktsiyadan iborat bo‘ladi. Bu turdagi hikoyachi tomonidan rivoyat qilinadigan voqealarni sujet ichidagi sujet deb atashimiz mumkin.

O‘. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidan quyidagi parchani namuna sifatida keltirishimiz mumkin: “Ajab, inson xotirasi – eshigi yopib qo‘yilgan omborga o‘xsharkan. Ombor oldidan har kuni o‘tasiz. O‘tasizu o‘z yumushingiz bilan ovora bo‘lib, qayrilib qaramaysiz. Vaqti kelib tasodifiy shamol omborning eshigini ochib yuboradi-yu, beixtiyor ichkariga mo‘ralab qaraysiz. Shunda qiziq holat ro‘y beradi. Ombor ichida oltindan aziz narsa ham, ko‘zingiz tushishi bilan ta’bingizni xira qiladigan qaqirququrlar ham qalashib yotgan bo‘ladi. Alam qiladigan joyi shundaki, siz ulardan xohlaganingizni ajratib ololmaysiz... Hammasi baravariga jon ato qilib, atrofingizni qurshab oladi”¹⁴.

S. Fitsjeraldning “The diamond as big as the Ritz” hikoyasidan kichik bir parchani keltirib o‘tamiz: “You notice that they’ve lived so long apart from the world that their original dialect has become an almost indistinguishable patios”¹⁵ (Ular dunyodan uzoqda shunchalik uzoq yashaganki, o‘zlarining asl lahjalari deyarli tanib bo‘lmas darajadagi shevaga aylangan).

3. Uchinchi shaxs hikoyachisi. Bu turdagi hikoyachi tashqi rivoyatchi deb ham ataladi va eng keng tarqalgan bo‘lib, uchinchi shaxslar bilan sodir bo‘ladigan voqealarga yaqinligi yoki aytilgan fikrlar makonidan uzoq ekanligi bilinib turadi. Bu turli hikoyachi har doim voqeadan tashqarida bo‘ladi, ya’ni sujetda uning hech

¹² Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 45.

¹³ Fitzgerald F. S. The ice palace: Selected short stories. – M.: Progress, 1979. – P. 84.

¹⁴ Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2016. – B. 62.

¹⁵ Fitzgerald F. S. The diamond as big as Ritz: Selected short stories. – M.: Progress, 1979. – P. 34.

qanday harakati ko‘rilmaydi. U sodir bo‘lgan voqeaning tafsilotlarini qisman yoki to‘liq bilishi mumkin. Bu kabi hikoyachilarni quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin:

Voqeani to‘liq biluvchi hikoyachi. Gap barcha jihatdan ustun bo‘lgan va aksar voqealarni kuzatadigan hikoyachi haqida ketmoqda. U hamma narsani biladigandek tuyuladi, har qanday zamondagi, hozirgi yoki o‘tmishdagi voqealarni biladi, ammo hikoyaga begona. Ushbu hikoyachi ko‘proq bolalar hikoyalarida ishtirok etadi. Ushbu turdagi hikoyachiga ham “Ikki eshik orasi” romanidan ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Chunonchi: “...Qish erta tushdi. Hali g‘o‘zapoyalar yig‘ishtirib olinmasdan qor yog‘di. Ertasiga havo charaqlab ochilib ketdi. Tirkash qor ko‘rpasiga burkanib endigina uyquga ketgan yerni cho‘chitib traktor haydar, qor bosgan dalalar oftob nurida ko‘zni qamashtirib yarqirar, yakkam-dukkan g‘o‘zapoyalar taqdiridan nologanday shumshayib turardi. Traktor hali yaxlamagan dalada yengilgina suzib, muzyorar kemaday orqasidan qop-qora iz qoldirib borardi”¹⁶. Ko‘rinib turganidek, hikoyachi barcha voqeani eng kichkina detallarigacha biladiganday tuyuladi, ammo uning o‘zi hikoya sujetiga begona.

S. Fitsjeraldning aksariyat hikoyalari uchinchi shaxs tilidan bayon qilingan. Quyida “The ice palace” hikoyasidan parcha keltirib o‘tamiz: “Her eyes were drawn irresistibly to the great drifts and circles of snow that lay deep in the centre of the ice”¹⁷ (Uning nigohlari beixtiyor muz markazida chuqur yotgan ulkan qor uyumlari va doiralariga qaratildi).

Shaxsi noma‘lum bo‘lgan guvoh hikoyachisi. Bu turli hikoyachi, sodir bo‘lgan voqeani guvohi bo‘lgan, ya‘ni voqealarda ishtirok etgan, ammo voqeani unda ishtirok etmaydigan shaxs nuqtai nazaridan aytib beradi. “Mavhum hikoyachi” deganda asosan shu kabi hikoyachilar nazarda tutiladi. Ba‘zi tadqiqotchilarning aqidalariga ko‘ra uning ekvivalenti kino kamerasing ko‘rinishi bo‘ladi.

Misol: “...O‘sha, suvdan olib chiqqan yiliyoq Qosim ota unga papka, “Alifbe” olib bergan...”¹⁸ O‘. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidan olingan ushbu kichkina parchada shaxsi noma‘lum bo‘lgan guvoh hikoyachisi nomidan fikr bildirilgan. Shu bitta gapni o‘qib kitobxon osonlik bilan shuni tushunib oladiki, Qosim ota bir paytlar asarning asosiy qahramoni, ya‘ni Tirkashni suvdan olib chiqqan ekan va o‘sha yili unga o‘quv qurollari olib bergan, ammo ushbu ma‘lumot kimning nomidan aytilayotgani noma‘lum.

S. Fitsjeraldning “The diamond as big as the Ritz” hikoyasidan quyidagi misolni keltirib otamiz: “July under the lee of the diamond mountain was a month of blanket nights and warm, glowing days”¹⁹ (Iyul oyi Olmos tog‘ining yon bag‘rida yopinchiqqa burkanib uxlanadigan tunlar va iliq, nurli kunduzlar bilan to‘la edi).

¹⁶ Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2016. – B. 63.

¹⁷ Fitzgerald F.S. The ice palace: Selected short stories. – M.: Progress, 1979. – P. 82.

¹⁸ Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2016. – B. 61.

¹⁹ Fitzgerald F.S. The diamond as big as Ritz: Selected short stories. – M.: Progress, 1979. – P. 53.

Ma'lumot beruvchi hikoyachi. Bu turdagi hikoyachi vositalari materiallarida, yoki hikoyani tiklash uchun foydalaniladigan ba'zi bir hujjat turlarida ko'rinishi mumkin.

Ushbu tasnifga qo'shimcha ravishda yana ikki toifadagi hikoyachilarni aytishimiz mumkin. Bularning birinchisi **ishonchli hikoyachi**, ya'ni voqeaga aniqlik kiritish uchun fikrini bayon qiluvchi shaxsdir. Boshqa biri **shubhali hikoyachi**, ya'ni fikrlari ishonchsiz bo'lgan shaxs.

Dissertatsiyaning **“S. Fitsjerald va O'. Hoshimov novellalari strukturalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida adiblar tomonidan yaratilgan novellalar strukturalari qiyosiy tahlil qilingan. Ushbu bobda qo'shimcha narrativli strukturalar yaratuvchi novellalar (“The ice palace” va “Ikki eshik orasi” asarlari misolida) qiyosiy tahlil qilingan, hamda Xayoliy makon va uning narrator tomonidan ifodalanishi mufassal yoritilgan.

S. Fitsjerald va O'. Hoshimov deyarli bir paytda yashab ijod qilgan, ammo ular yashagan mamlakatlarda ijtimoiy va siyosiy vaziyatlar, tarix, mentalitet farqli bo'lgan. Albatta har bir adibning ijodiyoti uning ko'rgan, eshitgan va boshidan kechirgan voqea-hodisalarni qamrab oladi. Shuning uchun mazkur ikki adibning novellariga agar umumiy baho beradigan bo'lsak, o'xshash jihatlaridan ko'ra farqli tomonlari ko'proq ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ammo, adiblar hikoyalarini mutolaa qilib, nihoyatda o'xshash tasvirlarning mavjudligini ham ko'rishimiz mumkin. O'. Hoshimov o'z hayotining asosiy qismini sobiq sho'rolar davrida o'tkazgan. Uning “Dunyoning ishlari” nomli asaridagi hikoyalar ham o'z bolaligi davrida sodir bo'lgan voqealardan iborat, ya'ni bevosita sho'rolar zamoniga bog'liq. S. Fitsjerald esa, u paytlardagi sho'rolar hukumatining birinchi raqamli raqibi Amerika Qo'shma Shtatlarida yashab ijod qilgan.

O'. Hoshimov ijodida “Ikki eshik orasi” romani alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Unda adib qariyb qirq yillik davrni o'z ichiga olgan va bir qator chigal hamda murakkab taqdirler misolida o'z xalqining tarixiy qismatini mahorat bilan umumlashtirib berdi. Shu tufayli ham O'. Hoshimov romani 1986-yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. O'. Hoshimov hikoya janrida ham unumli ijod qilgan. Xususan, uning “Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Urushning so'nggi qurboni”, “O'zbek ishi” kabi asarlari o'zbek hikoyachiligi rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Uning “Qalbning oppoq daftari”, “Muqaddas qasamni buzganlar”, “Avlodlarga nima deymiz”, “Mantiq qani?”, “Davlat siri” kabi maqolalari esa so'nggi yillar o'zbek publisistikasining yutuqlaridan biri bo'ldi. O'. Hoshimov mohir hikoyanavis, qissanavis, romannavis va publisistgina emas, dramaturg sifatida ham zamonaviy adabiyot rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Uning “Xazon bo'lgan bahor”, “To'ylar muborak”, “Vijdon dorisi”, “Inson sadoqati”, “Qatag'on” drama va komediyalari Respublika teatrlari sahnalaridan munosib o'rin egallagan. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobi ijtimoiy-ma'naviy hayotda muayyan iz qoldirgan.

“Ikki eshik orasi” O'. Hoshimov adabiy merosida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Romanda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi mislsiz mahorat bilan tasvirlanadi. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka raxna solgan urushni qoralaydi; uning g'ayriinsoniy mohiyatiga urg'u beradi. Ayniqsa,

urush voqeligining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko'ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy jihatini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari vositasida oddiy odamlarning fazilatleri, mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshini ko'rsatadi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o'rgangani uchun har bir epizod o'quvchini ishontiradi; qalbiga jiddiy ta'sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar, ularning dialoglari, shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Yetti qism, qirq yetti bobdan tarkib topgan roman kompozitsion qurilishi jihatidan ham o'ziga xoslik kasb etadi. Undagi voqea-hodisalar bayonida qatnashgan to'qqizta personaj hikoyalarini adib bir-biriga ustalik bilan bog'laydi. Tasvir uchun tanlangan bunday poetik usul yozuvchidan albatta yuksak mahorat talab qiladi. Aks olda, sujet zanjirida uzilish yuz berib, voqealar sochilib ketgan bo'lar edi. Biroq romanning ta'sir quvvati, ichki intizomi o'quvchida juda yaxshi taassurot qoldiradi. "Ikki eshik orasi" romanidagi Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabi obrazlar o'z individual qiyofasi bilan ajralib turadi.

S. Fitsjerald esa XX asr 20-30-yillarda yaratgan novellalaridan hammasini ham yuksak darajada badiiy hisoblamaydi, ayrimlari asosiy romanchilik ijodiga ilova sifatida qabul qilinadi. Darhaqiqat, bir necha novellalar tamomila moddiy manfaat maqsadida yozilgandi. M. Koreneva Jon Makkormikning "The middle distance"²⁰ kitobidagi fikrini keltiradi. Jon Makkormik fikricha, yozuvchining novellalari "uning romanlarida munosib voqelangan g'oyalar, mavzular, badiiy yechimlar jamlangan ikkinchi darajali, qo'shimcha, o'ziga xos bank sifatida xizmat qilgan"²¹ Bir tomondan shunday, lekin S. Fitsjeraldning ko'pgina novellalari hozirgacha ham badiiy qadr-qimmatga ega. Novellanavis S. Fitsjeraldning muvaffaqiyatli ilk qadami deb, 1920-yilda yozilgan "The offshore pirate" chop etilishini hisoblash mumkin – bu tipik ko'ngilochar "mutolaa uchun" edi.

"May day" ijtimoiy novellasi yaratilishi bilan yosh ijodkor mavzu va uslubning keng ko'lamini namoyish etdi. Ahamiyatlisi, aynan shu yilda S. Fitsjeraldda yangi davr adabiyotiga nisbatan ijodkorlik munosabati shakllandi. Bundan ma'nodor sarlavha qo'yilgan "Tales of the Tazz Age" to'plami ham dalolat beradi. Muhimi, yozuvchi romanlar va novellalar ustida parallel ish olib boradi. Ushbu tadqiqot doirasida bu holat roman va novella maydonida "narrator" qidirish jarayoni sifatida ahamiyatlidir. Agar "The great Gatsby" romanida go'yo o'zi ularning ishtirokchisi bo'lgan, uning idroki orqali beriladigan voqealar haqida so'zlovchi an'anaviy hikoyachi, o'ziga xos narrator topilgan bo'lsa, o'sha davr novellalarida narratorlar rang-barangdir. Aynan novellalar S. Fitsjerald uchun "tajribaviy ijodiy laboratoriya" bo'lgan deb hisoblash mumkinmi? 1925-yilda "The great Gatsby" romanining yaratilishi va 1926-yilda yetakchi o'rinni "The rich boy" novellasi egallagan "All the sad young man" to'plaminining chiqishiga qaraganda, shunday deyish mumkin. 1934-yilda sayqallangan struktura va

²⁰ John McCormic. The middle distance. – N. Y.: Free Press, 1971. – 215 c.

²¹ Коренева М.М. История литературы США. Т. I. Литература колониального периода и эпохи Войны за независимость XVII-XVIII вв. – М.: Наследие, 1997. – Т. I. – 831 с.

narratorlarning harakatchan qatoriga ega “Tender is the night” dunyo yuzini ko‘radi.

“The ice palace” novellasi S. Fitsjeraldning dastlabki asarlari sirasiga kiradi va u 1920-yilda chop etilgan. Novellada o‘zining janubiy modalligi va aqidalariga ega mavhum muallif yaqqol namoyon bo‘lgan. Novella Salli Kerrol hayotidan olingan olti bob, olti epizod ko‘rinishida, “janublik” va “shimollik” aniq chegaralangan makonlar hamda ularning ichida berkitilgan personajlar bilan birga oltita makondek tuzilgan. Boz ustiga, janublik narrator-personajlarga kelsak, S. Fitsjerald ularning leksikasiga tipik janubiy talaffuzni ham “kiritadi” va buni A. I. Poltorayski o‘z sharhlarida ta’kidlab o‘tadi: “mawnin = morning” (tong). Ushbu va hikoyaning boshqa epizodlarida oq tanlilar janubiy lahjasining talaffuzi grafik tarzda voqelanadi. Mazkur lahja uning so‘zlashuv variantida taqdim etilgan bo‘lib, yordamchi fe‘l va artikllar tushirib qoldirilgan, elliptik iboralardan, qisqargan shakllardan foydalanilgan ... “Spouse = Surpass = Lo = Hallo” (salom).

